
ISSN: 3060-4613

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№11(1)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslaşgan ilmiy jurnal

# MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LİMİ

Elektron naşr. 110 sahifa,
2-oktyabr, 2026-yil.

**BOŞ MUHARRIR:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

**BOŞ MUHARRIR ÖRINBOSARI:**
**Aşurov Ramzidin Ramazonoviç** – Psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (Phd), dotsent

***TAHRIRIYAT KENGAŞI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Şoumarov Ğ.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirğizboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Şaripov Ş.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Şermuhammadov B.Ş. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qöldoşev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozoğiston)***
***Rejep Özyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Ça – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Ş. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi Özbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM boş muharriri, Özbekiston Respublikasida xizmat körsatgan jurnalist, filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Ğafurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Şomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)***
***Nematov Ş.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yiça falsafa doktori (PhD)***
***Yuldaşeva F.I. – pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldaşeva D.B. – filologiya fanlari böyiça falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toşkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Panjiyev M. A. – Qaşqadaryo viloyati Maktabgaça va maktab ta'limi boşqarmasi boşliğining birinçi örinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bölimining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor öğli – Pedagogika fanlari böyiça falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va işbilarmon" MÇJ
Hamkorlarimiz: Özbekiston Respublikasi Ta'lim va ilm-fan vazirligi, Özbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ashurov Ramzidin Ramazonovich –** Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali Özbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni çop etiş uçun milliy ilmiy naşrlar röyxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari böyiça: OAK Kengaşi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

• Ekspert kengaşi (29.10.2024-y., №10)

• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari böyiça: Toşkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

• Ekspert kengaşi (25.05.2025-y., №10)

• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

**"Maktabgaça va maktab ta'limi"** jurnali

26.09.2023-yildan

Özbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Ta'lim jarayonida deontologik tamoyillar asosida nizolarni boşqariş ..... 10
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Sun'iy intellekt asosida maktab öquvçilarining matematik xatolarini diagnostika qiliş va individual tavsiyalar şakllantirişning gibrid adaptiv modeli ..... 15
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Abdurazzoqova Zebuniso Tolmas qizi

Harbiy xizmatçilarning pedagogik mahoratini oşirişning ilmiy-metodik asoslari ..... 21
Yadgarov Ravşan Ergaşeviç

Inklyuziv ta'limda logopedik texnologiyalardan foydalaniş metodikasi ..... 27
Ikramova Dilafruz Furqat qizi, Ilhomova Malikaxon Dilşod qizi

Faoliyat markazlari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning raqamli savodxonligini şakllantiriş metodikasi ..... 30
Jo'rayeva Gulira'no Nazirjon qizi

Bölajak tasviriy san'at öqituvçilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirişda an'anaviy naqqoşlik san'atining pedagogik imkoniyatlari ..... 36
Rözmetov Quvondiq Şanazarovich

Pedagogik hamkorlik asosida ösmir yoşdagi öquvçilarda ijtimoiy voqelikka sezgirlikni tarbiyalaş mexanizmlari ..... 42
Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi

Talabalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini jismoniy madaniyat vositasida rivojlantiriş metodikasini takomillaştiriş ..... 47
Imomov Asliddin Abdurazoqoviç

Harakatli öyinlar yordamida boşlanğiç sinf öquvçilarining harakat faolligini oşiriş usullari ..... 51
Ernazarova Ziyoda Erkin qizi

Sun'iy intellektning inson fikrlaş qobiliyatiga ta'siri: intellektual rivojlaniş uçun imkoniyatlar va tafakkur zaiflaşuvi xavfi ..... 55
Tölaganov Abdumalik Abdiraximoviç

Jadidçilik harakatining vujudga kelişining ijtimoiy-tarixiy şart-şaroitlari ..... 60
Nişonov Muhammad Bahodir öğli, Pulatov Şerdor Nematjonoviç

Maktabgaça ta'lim taşkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirişning nazariy-metodologik asoslari ..... 66
A'zamova Malohat Nadjimovna

Söz yasalişi, morfologiya va sintaksisning özига xos xususiyatlari ..... 70
Bobojanov Şaripboy Xudoşukiroviç

Inklyuziv ta'limda diskriminatsiyani oldini oliş va ularni psixologik qöllab quvvatlaş tamoyillari ..... 74
Bozorova Muxlisa

Neyro logopediya va biometriya ..... 78
Foiqova Diyora Anvar qizi

Bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalaniş ..... 83
Ibrohimova Şahlo Umarali qizi

3–4-sinf öquvçilarining badiiy asarlar öqişga qiziqişini oşirişning metod, şakl va vositalari ..... 88
Rasulova Zohida Sindorovna

Raqamli ta'lim muhitida kasbiy-refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirişning metodik tizimini integratsiyalaş ..... 92
Talabova Dilrabo Tolibova

Informatika va uni öqitiş metodikasi fanini öqitişda adaptiv öquv dasturlari va virtual laboratoriyalardan foydalanişning metodik tizimi ..... 98
Xomidov Zohidjon Adhamjon öğli

Развитие профессиональной компетентности будущих педагогов в условиях цифровизации образования ..... 104
Шаланков Константин Константинович

# BÖLAJAK ÖQITUVÇILARNING METAKOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRIŞDA REFLEKSIV TOPŞIRIQLARDAN FOYDALANIŞ

Ibrohimova Şahlo Umarali qizi
Samarqand viloyati Samarqand şahridagi
28-umumiy örta ta'lim maktabi matematika fani öqituvçisi
E-mail: şahloibrohimova720@gmail.com
**ORCID: 0009-0006-87343357**

**Annotatsiya:** Maqolada bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalanişning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Nazariy tahlil metodi orqali metakognitiv faoliyat va pedagogik refleksiya örtasidagi boğliqlik oçib berilgan. Refleksiv topşiriqlar faoliyatni rejalaştiriş, uni bajariş jarayonini kuzatiş va natijalarni baholaş yönalişlari böyiça tizimlaştirilgan. Matematika ta'limiga oid misol orqali yeçiş strategiyasini asoslaş, xatolar sabablarini tahlil qiliş va pedagogik qarorlarni izohlaşga qaratilgan topşiriqlarning mazmuni körsatilgan. Refleksiv javoblarni tahlil qiliş mezonlari hamda topşiriqlarni qöllaş böyiça metodik tavsiyalar taklif etilgan. Olingan xulosalar nazariy-metodik xususiyatga ega bölib, takliflarning amaliy samaradorligini empirik tekşiriş zarurligi qayd etilgan.

**Kalit sözlar:** bölajak öqituvçi, metakognitiv faoliyat, pedagogik refleksiya, refleksiv topşiriq, rejalaştiriş, metakognitiv monitoring, özini özi baholaş, öquv strategiyasi, pedagogik tayyorgarlik.

**Abstract:** This article examines the theoretical and methodological foundations of using reflective tasks to develop prospective teachers' metacognitive activity. The relationship between metacognitive activity and pedagogical reflection is explored through theoretical analysis. Reflective tasks are classified into three areas: planning activities, monitoring the process of their implementation, and evaluating outcomes. An example from mathematics education illustrates tasks aimed at justifying solution strategies, analyzing the causes of errors, and explaining pedagogical decisions. Criteria for analyzing reflective responses and methodological recommendations for implementing the tasks are proposed. The conclusions are theoretical and methodological in nature, and the need for empirical testing of the practical effectiveness of the proposed recommendations is emphasized.

**Key words:** prospective teacher, metacognitive activity, pedagogical reflection, reflective task, planning, metacognitive monitoring, self-assessment, learning strategy, teacher preparation.

**Аннотация:** В статье раскрываются теоретико-методические основы использования рефлексивных заданий для развития метакогнитивной деятельности будущих учителей. Посредством метода теоретического анализа выявлена взаимосвязь между метакогнитивной деятельностью и педагогической рефлексией. Рефлексивные задания систематизированы по направлениям планирования деятельности, мониторинга процесса её выполнения и оценки результатов. На примере из области математического образования раскрывается содержание заданий, направленных на обоснование стратегии решения, анализ причин ошибок и объяснение педагогических решений. Предложены критерии анализа рефлексивных ответов и методические рекомендации по применению заданий. Полученные выводы имеют теоретико-методический характер; отмечена необходимость эмпирической проверки практической эффективности предложенных рекомендаций.

**Ключевые слова:** будущий учитель, метакогнитивная деятельность, педагогическая рефлексия, рефлексивное задание, планирование, метакогнитивный мониторинг, самооценка, учебная стратегия, педагогическая подготовка.

## KIRIŞ

Zamonaviy pedagogik ta'limda bölajak öqituvçining kasbiy tayyorgarligi fan mazmunini biliş va uni öquvçilarga yetkaziş könikmalari bilan bir qatorda, öz biliş faoliyatini anglaş, boşqariş hamda baholaş qobiliyatini ham qamrab oladi. Pedagogik vaziyatlarning turliça keçişi, öquvçilarning individual ehtiyojlari va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar öqituvçidan öz qarorlarini asoslaş, qöllayotgan usullarining samaradorligini tahlil qiliş hamda zarur hollarda faoliyat strategiyasini özgartirişni talab etadi. Şu jihatdan bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantiriş ularni mustaqil fikrlaydigan, öz tajribasidan xulosa çiqaradigan va kasbiy faoliyatini takomillaştirib boradigan mutaxassis sifatida tayyorlaşning muhim yönalişidir.

Metakognitiv faoliyat şaxsning öz biliş jarayonlari haqidagi bilimlari va uşbu jarayonlarni ongli ravişda tartibga solişga qaratilgan harakatlarida namoyon böladi. Uning mazmunini öquv maqsadini aniqlaştiriş, vazifani bajariş usulini tanlaş, bajariş jarayonini kuzatiş, tuşunişda yuzaga kelgan qiyinçiliklarni aniqlaş va erişilgan natijani baholaş taşkil etadi. Bölajak öqituvçi uçun bunday faoliyat ikki tomonlama ahamiyatga ega: u, avvalo, özining ta'lim olişini samarali taşkil etişga yordam beradi; şuningdek, kelgusida öquvçilarning mustaqil örganiş faoliyatini qöllab-quvvatlaş uçun metodik asos yaratadi. Binobarin, pedagogik tayyorgarlik jarayonida talabaning qanday bilimga ega ekanligi bilan birga, uşbu bilimni qanday özlaştirgani, qaysi strategiyalardan foydalangani va öz xatolarini qanday tuzatişini ham e'tiborga oliş zarur.

Mazkur jarayonda refleksiv topşiriqlar alohida pedagogik imkoniyatga ega. Bunday topşiriqlar talabani bajarilgan işni qayta bayon qilişdan taşqari, öz harakatlarining maqsadi, tanlangan usulning asoslanganligi, duç kelgan qiyinçiliklari va natijaga ta'sir etgan omillarni tahlil qilişga yönaltiradi. Masalan, "Uşbu usulni nima sababdan tanladim?", "Qaysi bosqiçda xatoga yöl qöydim?", "Natijani qanday tekşirişim mumkin?" va "Keyingi safar faoliyatimni qanday özgartiraman?" kabi savollar öquv faoliyatining içki mexanizmlarini anglaşga xizmat qiladi. Refleksiya şu tariqa öz tajribasini tahlil qiliş vositasi sifatida metakognitiv rejalaştiriş, monitoring va baholaş jarayonlari bilan uzviy boğlanadi. Bölajak öqituvçilarni tayyorlaşda refleksiv topşiriqlarning mazmuni ularning kelgusi kasbiy vazifalariga mos bölişi lozim. Dars işlanmasini asoslaş, pedagogik vaziyatga doir qarorni tahlil qiliş, öquvçining xatosi sabablarini izohlaş, muqobil tuşuntiriş usullarini taqqoslaş va öz faoliyatiga mezonlar asosida baho beriş şunday topşiriqlar jumlasiga kiradi. Xususan, matematika ta'limiga oid vaziyatlarda masalaning javobini topiş bilan birga, yeçiş strategiyasini asoslaş, boşqa yeçim yöllarini körib çiqiş va xato mulohazaning yuzaga keliş sababini aniqlaş metakognitiv faoliyatni rivojlantiriş uçun qulay şaroit yaratadi. Bunda talaba öz fikrlaş jarayonini tahlil qiliş orqali öquvçining biliş faoliyatini tuşunişga ham tayyorlanadi.

Şu bilan birga, refleksiv topşiriqlardan foydalanişda ularning şaklan bajarilişi bilan mazmunan çuqur tahlilga asoslanişini farqlaş muhimdir. Maşğulot yakunida faqat "Nimalarni örgandingiz?" yoki "Dars sizga yoqdimi?" kabi umumiy savollarni beriş metakognitiv faoliyatning barça tarkibiy jihatlarini qamrab olmaydi. Buning uçun topşiriqlarda tahlil obyekti, baholaş mezoni, dalillaş talabi va keyingi faoliyatni takomillaştirişga qaratilgan vazifa aniq belgilanişi kerak. Şuningdek, refleksiv topşiriqlarni maşğulotning boşlanğiç, asosiy va yakuniy bosqiçlariga izçil kiritiş, talabalarga öz mulohazalarini asoslaş imkonini beriş hamda öqituvçi tomonidan mazmunli qayta aloqa taqdim etiş zarur. Bu esa refleksiv topşiriqlarni tanlaş va qöllaşning metodik asoslarini yoritiş ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlarning pedagogik imkoniyatlarini nazariy-metodik jihatdan asoslaş hamda ulardan foydalaniş yöllarini yoritişdan iborat. Uşbu maqsad doirasida metakognitiv faoliyat va refleksiya örtasidagi boğliqlikni oçib beriş, rejalaştiriş, özini kuzatiş va natijani baholaşga yönaltirilgan topşiriqlarning mazmunini tavsiflaş hamda ularni pedagogik tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalaş şartlarini aniqlaştiriş nazarda tutiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR ŞARHI

Bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalaniş masalasi metakognitsiya nazariyasi, özini özi boşqarib örganiş va pedagogik refleksiyaga oid tadqiqotlar bilan uzviy boğliq. Uşbu yönalişdagi adabiyotlarni tahlil qilişda şaxsning öz fikrlaş jarayonlari haqidagi bilimlari, mazkur jarayonlarni boşqariş harakatlari va pedagogik tajribani tahlil qiliş qobiliyatini özaro aloqador, biroq mazmunan farqli tuşunçalar sifatida körib çiqiş muhimdir.

Metakognitsiyaning nazariy asoslarini yoritişda J. H. Flavellning "Metacognition and Cognitive–Monitoring: A New Area of Cognitive–Developmental Inquiry" nomli maqolasi alohida örin tutadi. Olim metakognitiv bilimlar, metakognitiv tajribalar, maqsadlar hamda strategiyalar örtasidagi özaro ta'sirni tuşuntiradi [1]. Uşbu yondaşuvga köra, ta'lim oluvçining topşiriqni bajarişi va uni qanday bajarayotganini anglaşi bir xil jarayon emas. Mazkur nazariyaning tadqiqot mavzusi uçun ahamiyati şundaki, refleksiv topşiriqlar talabaning öz imkoniyatlarini baholaşi, vazifa talablarini tuşunişi va tanlangan strategiyasini tahlil qilişiga yönaltirilişi mumkin. Biroq Flavellning maqolasi refleksiv topşiriqlarning bölajak öqituvçilar tayyorgarligidagi samaradorligini bevosita tekşirgan tadqiqot emas, balki bunday topşiriqlarni işlab çiqiş uçun nazariy asos hisoblanadi.

G. Sçraw va D. Moşmanning "Metacognitive Theories" maqolasida insonning öz biliş faoliyati haqidagi tasavvurlari uşbu faoliyatni tuşuntiriş va yönaltirişga xizmat qiluvçi tizim sifatida talqin etiladi. Mualliflar metakognitiv nazariyalarning yaşirin, norasmiy va formal şakllarini ajratib körsatadilar [2]. Mazkur qaraş refleksiv topşiriqlarning vazifasini aniqlaştiradi: talaba öz harakatlarini odatiy tarzda bajarişdan ularning sabablarini izohlaş va asoslaş darajasiga ötişi kerak. Masalan, "Men şu usuldan foydalandim" şaklidagi javob faoliyatni tasvirlasa, "Uşbu usulni vazifaning qaysi xususiyatlariga asoslanib tanladim?" savoliga javob beriş metakognitiv mulohazani talab qiladi. Uşbu nazariyadan kelib çiqib, refleksiv topşiriqlarda tanlangan usul, uning qöllaniş şaroiti va samaradorligini asoslaşga e'tibor qaratiş maqsadga muvofiqdir.

Refleksiv savollarning tuzilişi va yönaltirilganligi E. A. Davisning "Prompting Middle Sçool Science Students for Productive Reflection: Generic and Directed Prompts" tadqiqotida örganilgan. Muallif tabiiy fanlarga oid loyiha faoliyatida umumiy va muayyan yönalişni körsatuvçi refleksiv savollarni taqqoslagan. Tadqiqotda umumiy savollar berilgan şaroitda iştirok etgan öquvçilarda murakkab loyiha yuzasidan yaxlitroq tuşunça şakllangani qayd etilgan [3]. Bu natija refleksiv topşiriqning samaradorligini faqat savolning batafsilligi bilan izohlab bölmasligini körsatadi. Mazkur iş maktab öquvçilari iştirokida amalga oşirilgani sababli uning natijalarini bölajak öqituvçilar tayyorgarligiga bevosita tatbiq etiş imkoniyati çeklangan. Şunga qaramay, u refleksiv savollar talabaning mustaqil mulohaza yuritişi uçun yetarli imkoniyat yaratişi zarurligini muhokama qilişda muhim empirik asos bölib xizmat qiladi.

E. A. Davisning "Çaracterizing Productive Reflection among Preservice Elementary Teaçers: Seeing What Matters" maqolasi esa bevosita bölajak öqituvçilarning refleksiyasiga bağişlangan. Unda samarali pedagogik tahlil öquvçilar, fan mazmuni, baholaş va öqitiş jarayoni örtasidagi özaro boğliqliklarni anglay oliş bilan boğlanadi [4]. Mazkur yondaşuv refleksiv topşiriqlarni dars haqidagi umumiy taassurotlarni yoziş bilan çeklamaslik lozimligini anglatadi. Masalan, bölajak matematika öqituvçisiga öquvçi xatosini tahlil qiliş vazifasi berilganda, xatoning özini aniqlaş bilan birga, uning ehtimoliy sababi, qöllangan tuşuntiriş usuli va tuşunişni tekşiriş vositalari örtasidagi boğliqlikni izohlaş ham talab etilişi mumkin. Bu misol tadqiqotdagi yondaşuvning matematika öqituvçilarini tayyorlaşga doir metodik talqinidir.

Tadqiqot mavzusiga bevosita yaqin işlardan biri B. Kramarski va Z. Kohenning "Promoting Preservice Teaçers' Dual Self-Regulation Roles as Learners and as Teaçers: Effects of Generic vs. Specific Prompts" maqolasidir. Mualliflar bölajak öqituvçining ikki vazifasini ajratadilar: öz öquv faoliyatini boşqariş va öquvçilarda şunday faoliyatni şakllantirişga kömaklaşiş. Bölajak tabiiy fan öqituvçilari iştirokida ötkazilgan tadqiqotda aniq yönaltirilgan savollar ayrim körsatkiçlar, jumladan, öz öquv faoliyatini anglaş va amaliy öqitişda özini özi boşqarişni qöllab-quvvatlaş böyiça umumiy savollarga nisbatan ustun natijalarni körsatgan. Biroq yangi dars loyihasini tuziş vazifasida ikki şaroit örtasida farq aniqlanmagan [5]. Demak, refleksiv savollar yordamida şakllangan könikmalarning yangi pedagogik vaziyatga köçişini alohida tekşiriş zarur.

Davis hamda Kramarski va Kohen tadqiqotlarini qiyoslaş refleksiv topşiriqlarni tanlaşga nisbatan muhim metodik xulosaga olib keladi: umumiy yoki aniq yönaltirilgan savollarning birini barça şaroitlarda ustun deb hisoblaş asosli emas. Ularning imkoniyatlarini iştirokçilarning tayyorgarligi, topşiriq mazmuni va baholanayotgan natijalar bilan boğliq holda körib çiqiş kerak. Uşbu maqola doirasida bundan kelib çiqadigan metodik taklif – dastlab faoliyatni tahlil qilişga yordam beruvçi aniq savollardan foydalaniş, keyinçalik esa talabaga tahlil yönalişini mustaqil belgilaş imkonini beruvçi oçiq topşiriqlarga ötişdir. Bu taklifning samaradorligi amaliy tadqiqot orqali baholanişi lozim.

Tahlil qilingan adabiyotlar metakognitiv faoliyatni rivojlantirişda refleksiv topşiriqlarni maqsad, strategiya, bajariş jarayoni va natijani özaro boğlab tahlil qiliş vositasi sifatida taşkil etişga nazariy hamda empirik asos beradi. Şu asosda mazkur maqolada refleksiv topşiriqlarni bölajak öqituvçining öz örganiş jarayonini anglaşidan pedagogik qarorlarini dalillar bilan asoslaşiga ötişni ta'minlovçi metodik vosita sifatida körib çiqiş taklif etiladi. Asosiy e'tibor topşiriqlarning mazmuni, savollarning yönaltirilganligi va refleksiya natijasida işlab çiqiladigan keyingi harakat rejasiga qaratiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda nazariy tahlil metodidan foydalaniladi. Uşbu metod orqali metakognitiv faoliyat, pedagogik refleksiya va refleksiv topşiriqlarga oid ilmiy adabiyotlar örganilib, bölajak öqituvçilarning öz biliş faoliyatini rejalaştiriş, kuzatiş va baholaş jarayonlari bilan refleksiv topşiriqlar örtasidagi boğliqlik oçib beriladi. Tahlil uçun J. H. Flavell, G. Sçraw va D. Moşman, E. A. Davis, B. Kramarski va Z. Kohenning mavzuga bevosita aloqador ilmiy işlari asos qilib olinadi [1–5].

Manbalar metakognitiv faoliyat tarkibiy qismlarining yoritilişi, refleksiv savollarning mazmuni hamda bölajak öqituvçilar tayyorgarligiga tatbiq etiş imkoniyatlari asosida tahlil qilinadi. Bunda refleksiv topşiriqlarning uç yönalişdagi vazifasi ajratiladi:

- faoliyat boşlanişidan oldin maqsad va strategiyani aniqlaştiriş;
- topşiriqni bajariş davomida tuşuniş darajasi va qiyinçiliklarni kuzatiş;
- faoliyat yakunida natija, xatolar sabablari va keyingi harakatlarni baholaş.

Har bir yönalişga mos savollarning mazmuni nazariy qaraşlar asosida izohlanadi. Nazariy tahlil natijasida refleksiv topşiriqlarni işlab çiqiş va pedagogik tayyorgarlik jarayonida qöllaşga doir metodik tavsiyalar şakllantiriladi. Mazkur metod topşiriqlarning pedagogik imkoniyatlarini asoslaşga xizmat qiladi, biroq ularning amaliy samaradorligi haqida eksperimental xulosa çiqarişni nazarda tutmaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarning nazariy tahlili asosida bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlarning vazifalari tizimlaştirildi. Tahlilning asosiy natijasi sifatida refleksiv topşiriqlarni faoliyatni rejalaştiriş, bajariş jarayonini kuzatiş va yakuniy natijani baholaş bilan boğliq uç yönalişda taşkil etiş taklif qilindi. Uşbu natijalar nazariy-metodik xususiyatga ega bölib, topşiriqlarning amaliy samaradorligini ifodalovçi eksperimental körsatkiçlarni öz içiga olmaydi. Metakognitiv faoliyat va refleksiya örtasidagi boğliqlikni tahlil qiliş ularning özaro yaqin, biroq aynan bir xil tuşunçalar emasligini körsatadi. Metakognitiv faoliyat şaxsning öz biliş jarayonlarini anglaşi va boşqarişini qamrab olsa, refleksiya bajarilgan yoki bajarilayotgan faoliyatning asoslari, usullari va oqibatlarini tahlil qilişga yönaltiriladi. Şu sababli har qanday refleksiv savol metakognitiv vazifani töliq bajarmaydi. Masalan, "Maşğulot sizga yoqdimi?" savoli talabaning hissiy munosabatini aniqlaşga xizmat qiladi. "Topşiriqni bajarişda qaysi strategiyadan foydalandingiz va uning mosligini qanday tekşirdingiz?" savoli esa öz biliş faoliyatini anglaş hamda baholaşni talab etadi.

Demak, refleksiv topşiriqning metakognitiv imkoniyati uning talabani öz fikrlaş usullarini izohlaşga qay darajada yönaltirişi bilan belgilanadi. Faoliyatni rejalaştirişga qaratilgan refleksiv topşiriqlarda talabaning vazifa maqsadini tuşunişi, mavjud bilimlarini aniqlaşi, ehtimoliy qiyinçiliklarni oldindan körişi va bajariş strategiyasini tanlaşi asosiy örin tutadi. Bunday topşiriqlar bölajak öqituvçini işga kirişişdan oldin öz tayyorgarligi va vazifa talablari örtasidagi muvofiqlikni körib çiqişga undaydi. Jarayonni kuzatişga yönaltirilgan topşiriqlar esa tanlangan usulning samaradorligini tekşiriş, tuşunilmagan jihatlarni aniqlaş va zarur özgartirişlarni belgilaşga xizmat qiladi. Yakuniy baholaş bosqiçida natijaning töğriligi bilan birga, unga erişiş yöli, xatolarning sabablari va keyingi faoliyat uçun çiqarilgan xulosalar tahlil qilinadi.

1-jadval: **Metakognitiv faoliyat bosqiçlariga mos refleksiv topşiriqlar**

| Metakognitiv yönaliş | Refleksiv topşiriq namunasi | Javobda e'tibor qaratiladigan jihat |
|---|---|---|
| **Rejalaştiriş** | "Vazifani bajariş uçun nimalarni bilaman? Qaysi usulni tanlayman va nima sababdan?" | Maqsadni aniqlaştiriş, oldingi bilimlar va tanlangan strategiyani boğlaş |
| **Jarayonni kuzatiş** | "Qaysi bosqiçda qiyinçilik yuzaga keldi? Tanlagan usulimni davom ettirişga qanday asos bor?" | Qiyinçilikni aniqlaş, usulning mosligini tekşiriş va zarur özgartirişni belgilaş |
| **Natijani baholaş** | "Natijani qanday tekşirdim? Xatoga nima sabab böldi? Keyingi safar nimani özgartiraman?" | Dalil asosida baholaş, xato sababini izohlaş va keyingi harakatni rejalaştiriş |

Refleksiv topşiriqlar mazmunini aniqlaştiriş uçun matematika öqituvçilarini tayyorlaşga mos şartli misolni körib çiqiş mumkin. Talabaga öquvçining quyidagi yeçimi taqdim etiladi: $(a+b)^2=a^2+b^2$. Oddiy tekşiriş topşiriğida xatoni topiş va töğri formulani yoziş yetarli bölişi mumkin. Metakognitiv yönalişdagi refleksiv topşiriqda esa talabadan xatoni aniqlaş uçun qanday tekşiriş usulini tanlagani, öquvçi mulohazasi haqida qanday taxmin ilgari surgani va uşbu taxminni qaysi savol yordamida tekşirişi söraladi. Masalan, a=1 va b=1 qiymatlarini qöyiş berilgan tenglikning notöğriligini körsatadi. Biroq bu tekşirişning özi öquvçi xatosining sababini aniqlamaydi. Sababni tuşuniş uçun öquvçidan ifodani qanday özgartirganini izohlaş talab etiladi. Şu tariqa bölajak öqituvçi öz taxmini bilan dalilni farqlaşga yönaltiriladi. Mazkur misol refleksiv topşiriqlarning predmetga oid va pedagogik mazmunini birlaştiriş imkoniyatini körsatadi. Talaba, bir tomondan, matematik mulohazaning töğriligini tekşiradi, ikkinçi tomondan esa öquvçining tuşuniş jarayoniga mos pedagogik qarorni asoslaydi. Bunda "Men formulani qayta tuşuntiraman" şaklidagi javobni aniqlaştiriş zarur: tuşuntirişning qaysi şakli tanlanadi, u aniqlangan qiyinçilikka qanday mos keladi va öquvçining tuşunganligi qanday tekşiriladi? Uşbu savollar refleksiyani amaliy qaror bilan boğlaşga imkon beradi.

Tahlil asosida refleksiv javoblarni mazmuniga köra tavsifiy, tahliliy va istiqbolga yönaltirilgan şakllarda körib çiqiş taklif etiladi. Tavsifiy javobda talaba bajarilgan harakatlarni bayon qiladi. Tahliliy javobda tanlangan usulning sabablari, qiyinçiliklar va natija örtasidagi aloqalar izohlanadi. Istiqbolga yönaltirilgan javobda esa çiqarilgan xulosa asosida keyingi faoliyat uçun aniq özgartiriş belgilanadi. Masalan, "Vaqtim yetmadi" degan mulohaza qiyinçilikni qayd etadi; "Topşiriqning dastlabki qismiga ortiqça vaqt sarflaganim uçun tekşirişga ulgurmadim" degan javob sababni izohlaydi; "Keyingi topşiriqda yakuniy tekşiriş uçun alohida vaqt ajrataman" degan xulosa esa faoliyatni boşqariş rejasini ifodalaydi. Mazkur tavsiflar tayyor diagnostik şkala sifatida emas, balki refleksiv javoblarni tahlil qilişga doir metodik mezonlar sifatida taklif etiladi.

Refleksiv topşiriqlardan foydalanişning yana bir muhim jihati öqituvçi taqdim etadigan qayta aloqa bilan boğliq. Talabaga faqat javobining töğri yoki notöğriligini bildiriş uning fikrlaş jarayonidagi qiyinçiliklarni oçib bermaydi. Şu bois qayta aloqa talabaning mulohazasidagi asoslangan jihatni körsatişi va aniqlaştirilişi zarur bölgan masalaga yönaltirişi maqsadga muvofiq. Masalan, "Tanlagan usulingizni izohladingiz, endi uning natijaga mosligini qanday tekşirganingizni körsating" kabi fikr refleksiyani davom ettiriş uçun aniq yönaliş beradi. Bunda

talabaga dastlabki javobini qayta körib çiqiş imkonini yaratiş ham muhimdir. Nazariy tahlil natijasida refleksiv topşiriqlarni qöllaşga doir quyidagi metodik talablar şakllantirildi:

- topşiriqni aniq öquv yoki pedagogik vaziyatga boğlaş;
- javobda dalil va izoh talab qiliş;
- refleksiyani faoliyatning turli bosqiçlariga kiritiş;
- yakuniy mulohazani keyingi harakat rejasi bilan yakunlaş.

Uşbu talablar asosida tuzilgan topşiriqlar bölajak öqituvçining öz örganiş jarayoni va pedagogik qarorlarini ongli ravişda tahlil qilişini qöllab-quvvatlaşga qaratiladi. Ularning amaliy natijadorligini aniqlaş esa alohida empirik tekşiruvni talab etadi.

## XULOSA

Nazariy tahlil asosida bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişda refleksiv topşiriqlardan foydalanişning pedagogik imkoniyatlari yoritildi. Mazkur topşiriqlar talabaning öz biliş jarayonini anglaşiga, tanlangan strategiyalarni asoslaşiga, qiyinçiliklar sabablarini tahlil qilişiga va keyingi faoliyatini rejalaştirişiga yönaltirilişi bilan ahamiyatlidir. Ularning mazmunini faoliyatni rejalaştiriş, bajariş jarayonini kuzatiş va natijani baholaş bosqiçlariga muvofiq taşkil etiş taklif qilindi. Refleksiv topşiriqlarni işlab çiqişda aniq öquv yoki pedagogik vaziyatga tayaniş, talabaning öz mulohazalarini dalillar bilan asoslaşi va çiqarilgan xulosani keyingi harakat rejasi bilan boğlaşi muhimdir.

Bölajak öqituvçining refleksiyasi bajarilgan işni tavsiflaşdan uning sabablarini tuşuntiriş va faoliyatni takomillaştiriş yöllarini belgilaşga tomon yönaltirilişi lozim. Matematika ta'limiga oid topşiriqlarda bunday yondaşuv yeçim strategiyasini izohlaş, xatoni tekşiriş va öquvçining tuşunişiga mos pedagogik qarorni asoslaş orqali ifodalanişi mumkin.

Maqolada taklif etilgan topşiriqlar va metodik talablar bölajak öqituvçilarning metakognitiv faoliyatini rivojlantirişga doir maşğulotlarni taşkil etiş uçun nazariy-metodik asos bölib xizmat qilişi mumkin. Ularning amaliy samaradorligi va şakllangan könikmalarning yangi pedagogik vaziyatlarga köçişi esa keyingi empirik tadqiqotlar doirasida tekşirilişi zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:**

1. Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, № 10. – P. 906–911. – DOI: https://doi.org/10.1037/0003-066X.34.10.906.
2. Schraw G., Moşman D. Metacognitive theories // Educational Psychology Review. – 1995. – Vol. 7, № 4. – P. 351–371. – DOI: https://doi.org/10.1007/BF02212307.
3. Davis E. A. Prompting middle school science students for productive reflection: Generic and directed prompts // Journal of the Learning Sciences. – 2003. – Vol. 12, № 1. – P. 91–142. – DOI: https://doi.org/10.1207/S15327809JLS1201_4.
4. Davis E. A. Characterizing productive reflection among preservice elementary teachers: Seeing what matters // Teaching and Teacher Education. – 2006. – Vol. 22, № 3. – P. 281–301. – DOI: https://doi.org/10.1016/j.tate.2005.11.005.
5. Kramarski B., Kohen Z. Promoting preservice teachers' dual self-regulation roles as learners and as teachers: Effects of generic vs. specific prompts // Metacognition and Learning. – 2017. – Vol. 12, № 2. – P. 157–191. – DOI: https://doi.org/10.1007/s11409-016-9164-8.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Aşurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovçi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №11(1)**

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.